

USMONLI TURK DAVLATIDA DEVONCHILIK. MEHMET SAID PARTAV POSHO
IJODI VA DAVLAT SIYOSATIDAGI O‘RNI

To‘ychiyeva Dinora Bekmurod qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik 2-bosqich magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20681115>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr boshlaridagi Usmonli turk adabiy muhitida devonchilik, xususan, Mehmet Said Partav Posho ijodida ustuvor janrlarva uning siyosiy faoliyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: devon, sharqi, tarix, so‘fiylik, metafora, tahmis.

Abstract. This article discusses the tradition of divan poetry in the early 19th-century Ottoman Turkish literary environment, focusing specifically on the predominant genres in the creative work of Mehmet Said Pertev Pasha, as well as his political activities.

Keywords: divan, sharqi, date (chronogram), sufism, metaphor, tahmis.

XIX asr turk adabiyoti vakillarining asosiy qismi devon yaratgan shoir va yozuvchilar edi.

Ammo ular G‘arb adabiyotiga katta qiziqish bilan bildirishgan, biroq ular o‘z an‘analarga hurmat bilan qarashgan. XIX asr xalq she‘riyati oldingi asrlardan ajralib chiqdi. “Bu davr shoirlari orasida so‘fiylik tariqatiga mansub bo‘lmaganlar deyarli yo‘q; ular so‘fiylikning odatiy ishoralari va metaforalaridan keng foydalanganlar. Biroq, na so‘fiy shoirlar, na so‘fiylikni o‘z she‘rlariga bir xil lazzat sifatida kiritganlar o‘zlaridan oldingi shoirlar darajasiga erisha olmadilar. XIX asr Shayx G‘olibni yaratmadi. Bu davrda yozilgan taqlidlar, tahmislar, tashtirlar eski ustozlarni yangilari bilan taqqoslash uchun eng mos she‘riy shakllardir, ammo bu taqqoslash deyarli har doim keyingi shoirlar uchun noqulaylik tug‘diradi”¹. Ana shunday murakkab adabiy muhitda yashab ijod qilgan shoirlardan biri Mehmed Said Partav Posho hisoblanadi.

Partav Posho ijodi, avvalo, uning klassik devon an‘analariga sodiqligi bilan ajralib turadi.

U o‘z asarlarida g‘azal, tarix, qit‘a, muhammas, mustazod kabi an‘anaviy janrlardan keng foydalangan. Biroq Partav ijodini chuqurroq o‘rganish uning faqat an‘anaviy shoir emas, balki modern davri adabiy muhitining faol ishtirokchisi ekanini ko‘rsatadi. Chunki Partav Posho ijodida an‘anaviy janrlar bilan chegaralanmay sharqi janrida ham ijod qilgan.

Adabiyotshunos olimlar ta‘kidlaganidek, XIX asr boshlarida yashagan shoirlar ijodida an‘anaviylik qolipi bilan bir qatorda yangilanish unsurlari ham ko‘zga tashlanadi. Ahmet Hamdi Tanpınar bu davrni shunday tavsiflaydi: “Bu davrda eski she‘rning estetikasi davom etar ekan yangi hayotning ta‘sirlari ham sekin-asta his qilinishni boshladi”².

Partav Posho ijodi aynan mana shu ikki yo‘nalish to‘qnash kelgan nuqtada shakllangan.

Uning g‘azallarida an‘anaviy ishq keng uchraydi. Tanpınar o‘z asarida shunday deydi: “XIX asr Devon shoirlarining aksariyati davlat idoralarida kotib bo‘lib ishlagan yoki shu tarzda faoliyatini boshlagan.

¹ Tanpınar Ahmet Hamdi. XIX. Asır Türk Edebiyatı Tarihi, 7. Baskı, Çağlayan Basımevi, İstanbul 1988, –S. 64-65.

² Tanpınar Ahmet Hamdi. XIX. Asır Türk Edebiyatı Tarihi. İstanbul: Dergâh Yayınları, 2001. –S. 35.

Bu idoralar boshchiligidagi yuqori lavozimli amaldorlarning aksariyati ham shoir bo'lgan.

Ma'lumki, ba'zi shoirlar o'zlari ishlagan idoralarda taxalluslarni qo'llaganlar. XIX asrda faqat devon she'riyatiga qiziqqan taniqli san'atkorlar paydo bo'ldi³ "Devon she'riyati muayyan madaniy manbalardan oziqlangan, shu bois aniq bir g'oyaviy va madaniy asosga (poydevorga) ega bo'lgan, yuksak badiiy-estetik qiymat kasb etuvchi, qisqacha aytganda, har kim ham yetarli mehnat sarf qilmasdan tushinishi mumkin bo'lgan oddiy matnlar majmuasi emasdir. Zero, Devon shoirlari o'z asarlarini qalamga olishda turli manbalardan unumli foydalanganlar. Masalan, Qur'oni Karim va Hadisi Shariflar, Islom tarixi, barcha payg'ambarlar tarixi, umumturk tarixi (shu jumladan, Usmonli tarixi), Sharq va G'arb mifologiyasi, tarixiy shaxslar va afsonaviy qahramonlar, urf-odat va an'analar, davrning ilm-fan sohalari kabi manbalarning har biri yoki bir nechtasi Usmonli shoirlari she'r bitayotganda yoki umumiy ma'noda o'z asarlarini yaratayotganda tayanadigan asosiy manbalar hisoblanardi"⁴.

Shu bilan birga, Partav ijodini uning zamondoshlari ijodi bilan qiyoslash uning adabiy muhitdagi o'rini yanada aniq va yaqqol belgilash imkonini beradi. Masalan, Kechejizade Izzet Molla yoki Enderunlu Vasif kabi shoirlar ijodida yangilanishga bo'lgan moyillik Partav Posho ijodiga nisbatan kuchliroq namoyon bo'ladi. Ularning asarlarida ijtimoiy hayotga yaqinlik elementlari ko'proq uchraydi.

Partav esa bu jihatdan nisbatan o'rta pozitsiyada turadi. Partav Poshoni ko'proq klassik uslubni saqlab qolishga harakat qilgan shoir sifatidako'rish mumkin. Mustafa Isenning ta'kidlashicha, "bu davr shoirlarining bir qismi an'anaviy poetik tizimni saqlab qolishga harakat qilgan"⁵. Partav Posho ana shu poetik yo'nalish vakillaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Biroq Partav ijodini faqat an'anaviylik bilan cheklab bo'lmaydi. Uning ayrim she'rlarida davr ruhini aks ettiruvchi kayfiyatlar ham seziladi. Shu jihatdan uning ijodida Tanzimat davriga xos bo'lgan ayrim ruhiy va estetik o'zgarishlarning belgilarini ko'rish mumkin.

Adabiyotshunoslikda Tanzimat davri adabiyoti yangi g'oyalar, real hayot tasviriga urg'u berilgan adabiy davr sifatida baholanadi. Partav Posho bevosita Tanzimat davri shoiri bo'lmasada, uning ijodida Tanzimat davri elementlarini ko'rish mumkin. Bu jarayon uning ijodini o'tish davri adabiyoti sifatida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ko'ngul mulkinda sensin podishohim,

Umidi rah-u lutfundur panohim.

Seni injitmasin hori nigohim,

Go'zalsin gulizorim pek go'zalsin.

Partav Poshoning adabiy muhitdagi o'rni uning davlat arbobi sifatidagi mavqei bilan uzviy bog'liq. Saroy muhitida ijod qilayotgan shoir sifatida u adabiy jarayonlarning markazida turgan.

Ibnulemin Mahmud Kemal Inal Partav Posho haqida so'z yuritar ekan, uni o'z davrining yetuk va bilimdon shoirlaridan biri ekanligini e'tirof etadi.⁶

³ Tanpınar Ahmet Hamdi. XIX. Asır Türk Edebiyatı Tarihi. İstanbul: Dergâh Yayınları, 2001. –S. 30.

⁴ Ali Yörür. *Divan Edebiyatının Kaynakları* // Hikmet Akademik Edebiyat. – Yıl 3, Sayı 6, Bahar 2017. – S. 201-203.

⁵ İsen Mustafa. Eski Türk Edebiyatı El Kitabı. Ankara: Grafiker Yayınları, 2012. –S 215.

⁶ İbnülemin Mahmud Kemal İnal. Son Asır Türk Şairleri. Cilt I. İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1969, 122-bet.

Bu e'tirof Partavning adabiy muhitdagi nufuzini yaqqol ko'rsatib turibdi. Partav Posho o'z davrining adabiy muhitida klassik devon adabiyoti an'alarini davom ettirgan, shu bilan birga o'tish davrining ayrim xususiyatlarini o'zidanamoyon etgan shoir sifatida muhim o'rin egallaydi.

Uning ijodi Usmonli adabiyotining XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridagi holatini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Partav Posho faqatgina shoir, yoki davlat arbobi bo'lib qolmay, balki Mahmud II davri tarixini yoritgan tarixchi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki Partav Poshoning tarix manzumalarida davr voqealari, shahzodalar tug'ilishidan tortib, o'q otish, suv chiqarish kabi mavzularda tarixlar mavjud. "She'riyatimizda muhim tarixiy voqealar sanasini abjad hisobi bilan ifodalovchi kichik lirik she'rlar yaratish an'anasi mavjud bo'lib, ushbu san'at ham, shu usulda bitilgan badiiy asarlar ham tarix deb atalgan"⁷. Mehmet Said Partav Posho ijodining asosini tarix janrining go'zal namunalari egallaydi.

Hamdam u shoha holo sirri janobi Mavlo,

Maqsud ul sirri volo nay-u navo bahona.

O'lsun u nuri paykar ofoqa soya go'star,

Monandi shamsi anvar versun ziyo jahona.

Mehmet Said Partav Posho faqat ijod bilan to'xtalib qolmay, davlat siyosatida ham o'z so'zini ayta olgan diplomat, saroy amaldori edi. U davlatni rivojlantirishga harakat qildi. Bir qancha davlatlar bilan diplomatik aloqalar olib bordi. "Partav Posho, Nizom-i Jadid byurokrati bo'lmish Mehmed Said G'olib Posho tomonidan tarbiyalangandir. Partav Poshoning yuksalish davri, klassik Usmonli devonchiligidan zamonaviy byurokrtiyaga o'tish bosqichidir. Shunga bog'liq ravishda, Tanzimat byurokratlarini yetishib chiqqan II Mahmud davri, Tanzimat byurokratlarining keng qamrovli hokimiyatlarining ham bir darakchisidir. II Mahmud davrida qaror qabul qilish jarayonlari, ya'ni siyosatni belgilash va buni ijroga qo'yish jarayonlarida ba'zan sulton bilan byurokratlar orasida yashirin bir kurash kechgani ilgari surilishi mumkin. Davr byurokratlarining iqtidorda Tanzimat byurokratlarini qadar iroda va tashabbus sohibi bo'la olmasliklari; II Mahmudning shaxsiy yondashuvlari yonida so'z yuritilayotgan byurokratlarining xorijiy til, diplomatiyani chuqur bilish va huquqiy himoyalarning yetarsiz bo'lishi kabi bir qator iqtidor vositalaridan mahrum qolganliklari bilan bog'liqdir."⁸. Partav Poshoning arab, fors, qisman rus tilini bilishi uning Rais ul-kuttoblik faoliyatida ham qo'l kelgan, albatta. Ammo ikkinchi tarafdin olib qaraganda, u davrda diplomatiya tili fransuz tili bo'lgan. Shu boisdan, Partav Posho ba'zi qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. "Partav Afandi, Usmonli Imperiyasining inqirozli bir davrida Rais ul-kuttoblik maqomiga tayinlangan edi. Ushbu tayinlov uning siyosiy hayoti uchun ham bir burilish nuqtasidir va uning Usmonli tarixi ichidagi ahamiyati aynan mana shu nuqtadan boshlanadi. Gretsiya (Yunon) isyoni sababli imperiyaning keying diplomatik inqirozni boshdan kechirayotgan ushbu davrida Partav Afandi, imperiyaning tashqi siyosatida muhim bir aktor, faol siyosiy arbob sifatida oldingi planga chiqdi"⁹.

⁷ Hojiahmedov Anvar. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 107.

⁸ Kapıcı Ö. Tanzimât Yolunda Bir Osmanlı: Mehmed Sâid Pertev Paşa (1785-1837). Yüksek Lisans Tezi. – Ankara: Hacettepe Üniversitesi, 2006. – S. 10.

⁹ Kapıcı Ö. Tanzimât Yolunda Bir Osmanlı: Mehmed Sâid Pertev Paşa (1785-1837). Yüksek Lisans Tezi. – Ankara: Hacettepe Üniversitesi, 2006. – S. 29.

Partav Mehmet Said Posho Rais ul-kuttoblik davrida elchilar bilan olib borgan muzokara va suxbatlarida qat'iylik bilan va yon bosmaydigan pozitsiyada turardi. O'z nutqlari va da'volarini davrning diplomatik huquq asoslariga tayanib olib borishi bilan bir qatorda, shar'iy huquq va qoidalarga ham qat'iy amal qilardi. U o'zining siyosiy faoliyati davomida davlatni rivojlantirishga va Tanzimat davri tezlashishiga zamin tayyorladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Tanpınar Ahmet Hamdi. XIX. Asır Türk Edebiyatı Tarihi, 7. Baskı, Çağlayan Basımevi, İstanbul 1988, –S. 64-65.
2. Tanpınar Ahmet Hamdi. XIX. Asır Türk Edebiyatı Tarihi. İstanbul: Dergâh Yayınları, 2001. –S. 35.
3. Ali Yörür. *Divan Edebiyatının Kaynakları* // Hikmet Akademik Edebiyat. – Yıl 3, Sayı 6, Bahar 2017. – S. 201-203.
4. İsen Mustafa. Eski Türk Edebiyatı El Kitabı. Ankara: Grafiker Yayınları, 2012. –S 215.
5. İbnülemin Mahmud Kemal İnal. Son Asır Türk Şairleri. Cilt I. İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1969, 122-bet.
6. Hojiahmedov Anvar. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 107.
7. Kapıcı Ö. Tanzîmât Yolunda Bir Osmanlı: Mehmed Sâid Pertev Paşa (1785-1837). Yüksek Lisans Tezi. – Ankara: Hacettepe Üniversitesi, 2006. – S. 10.